




ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)

2025/№ 10

**ТА'ЛИМ ВА  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**



**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**

**№ 10/2025**  
**ОКТАБР**

**Muassis:**

Buxoro davlat universiteti  
Fan va ta'lim MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

**Jamoatchilik kengashi raisi:** Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

**Mas'ul kotib:** Akramova Gulbahor Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov Ismoil Ergashevich

**Tahririyat manzili:** Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:  
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan **PEDAGOGIKA,**

**PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI** bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

**Bosishga ruxsat etildi:**

04.09.2025 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar <https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

**Jurnal 28.07.2021 yilda 9305**

raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan


Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
Қаҳрамон Ражабов, Тарихчиларнинг Бахтиёр Расули	8
Ражабов Қ, Ўзбекистон ССРда руслаштириш сиёсати ҳамда “ривожланган ва етук социализм қурилиши” тажрибаси	10
Boboyev F. O'zbekiston SSRda sovet hokimiyatining chorbachilik sohasidagi siyosati: natija va oqibatlar (1946 – 1960-yillar)	17
Batashov I. K. O'zbekiston Respublikasi sud va prokuratura idoralari tarixi	23
Ergashev U.K. Xuzor (G'uzor) rustoqi tarixi (yozma manbalar asosida)	27
Jemuratova G. P. Xalq madaniyati an'alariga akseologik munosabatni shakllantirish mexanizmlari	31
Nurullayeva G. Don sanoati tashkiliy faoliyatiga ta'sir etgan omillar: muammo va yutuqlar (2000-2016 yillar).	35
Nematullayev A. U. Parlament tashqi siyosiy faoliyat sub'ekti sifatida: nazariy qarashlar va yondashuvlar	40
Qurbonova M. O'zbekiston til siyosatining ta'lim tizimidagi aks etishi va ijtimoiy oqibatlar (1989–2024)	48
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
Atashova F. D. The role of language in shaping national identity	52
Ismoilov X. T. Sud lingvistik ekspertizasi: xorijiy tajriba	55
Jaqsilikova A. S. K. Raxmanovning “Aqibet” romanidagi satirik xarakterlar	60
Kaniyazova J. O. About the image of heroes with similar fates	63
Mamadaliyeva N. Orifboyev A. O'zbek tilida “halol” va “harom” leksemalarining zamonaviy semantik, pragmatik va sotsiomadaniy tahlili	67
Toshpulatova M. K. Ingliz tilini akademik maqsadlarda o'qitishda “Mustaqil tuzilgan korpus” (DIY )dan foydalanish	74
Бекбергенова М.Д. Эпик жанр манбалари	78
Велиева С. Р. Лексико-семантическое значение иноязычной ОНОМАСТИКИ	82
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Umarova X. Oliy ta'limda tashkiliy-boshqaruv tizimni takomillashtirish masalalari	86
Karimova E. G. Bo'lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini elektiv kurs vositasida rivojlantirish texnologiyasi	92

Aripova M.L. Kasbiy faoliyatda prokrastinatsiya muammosi	98
Azamov U. Y. Ijtimoiy intellektni rivojlantirishda pedagogik fanlarning integrativ imkoniyatlari	102
Азимов С. С. Значение эстетики цвета в воспитании пластической культуры будущих дизайнеров и архитекторов	108
Axmedova A. Sh. Tizimga yo'naltirilgan texnologiyada tajriba-sinov ishlarini amalga oshirilishi	111
Abdumurodova D. A. 5–7 sinf o'quvchilarida axloqiy muloqot matnlari asosida o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirish usullarining ta'sirini aniqlash	116
Boboxujayev J. U. Talabalarning pedagogik qadriyatlarini shakllantirish omillari va shart-sharoitlari	120
Davronov N. I. Salomatlik madaniyati ko'nikmasini rivojlantirishning metodik xususiyatlari	123
Ermatova G. Sharq mutafakkirlarining analitik fikrlash va ma'naviy tarbiyaning uyg'unligi haqidagi pedagogik g'oyalari tahlili	127
G'aniyeva M. L. Talabalar nutqiy intuitsiyalarini rivojlantirishning imitatsion paradigmalari	131
Jiyanova S. I. Mahalliy kvartals qumidan magniyli qaytarish orqali texnik kremniy olish texnologiyasi	135
Жугинисова А. Д. Ўқув жараёнларини бошқаришнинг рақамли-технологик механизмларининг мазмуни, тузилмаси ва таркибий компонентлари	139
Masharipova N. R. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishga oid tarixiy tajribalar	144
Muhammadiyev B. H. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan "Molekulyar fizika" elektron darslikning tuzilishi va didaktik imkoniyatlari	148
Murodov K. N., Ramazonov X. R. 13–14 yoshli kurashchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirish	151
Najimova A.D. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqining rivojlanish darajasini aniqlashda bayondan foydalanish	157
Nematov D. Y. Musiqa ta'limida zamonaviy texnologiyalar asosida o'quvchilarning musiqiy qobiliyat va rivojlanish dinamikasini o'rganish	162
Norqulov U. E. Zamonaviy muhandis kadrlarning o'quv-kognitiv faoliyati	167
Norinov F. Q. Globalizatsiya sharoitida pedagogika fanlarini o'qitishda tarixiylik tamoyili	172
Omonboyeva M. E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish	177
Qudratova A. T. Sun'iy intellekt loyihalarida python dasturlash tilining afzalliklari	180
Qosimova G.I. Kichik yoshdagi o'quvchilarda olamning tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish xususiyatlari	184
Рахманова Э. Ю. Совершенствование интегративных образовательных моделей в медицине: гуманитарный и исторический аспекты	188
Ruzimurodov I. N. Muhandislik ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishni raqamlashtirishda dasturlash tili orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirish	191
Shoyimova Sh. S. Ta'limda gender tengligini ta'minlashda pedagogik kompetensiya	197
Шамурадова М. А. Историческая эволюция теории привязанности: от Джона Боулби до современных исследований	201
Tilavova M.M., Ne'matova N.U. Boshlang'ich ta'lim jarayonida 4k modelini joriy etishning pedagogik asoslari	208
To'rayev F. F. Matematik tenglamalar asosida iqtisodiy jarayonlarni matematik tahlil yordamida modellashtirish	213
Usmanova G. S. Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil etishning hozirgi holati	220
Uzoqov M. F. Ijobiy ta'lim muhitida bolani rivojlantirishdagi samarali pedagogik yondashuvlar	226
Закирова М. Р., Фахритдинов Н. С. Актуальность работы динамического веб-сайта по систем управления базами данных в операционных системах с ядром linux	230



Zulfanova N. N. Badiiy ijod tushunchasining nazariy va kontseptual aspektlari	236
Nurulloyev L. L. Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik darslarida jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish metodikasi	241
Davronova D.S. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi – talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatlarni shakllantirish omili sifatida	247
Pulatov Dj. A. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar faoliyati samaradorligi monitoringini takomillashtirishning shakllari va innovatsion usullari	252
Nazarov J. X. Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishda kreativ yondashuvning pedagogik omillari	257
Ahadov A.M. Axborot xavfsizligi bo'yicha pedagogik kadrlarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o'rni	268
Moynov I. J. Qoraqalpoq xalqining musiqiy pedagogikasining shakllanish bosqichlari	273
Ахмедова З. А. Театр ва кино санъатида драматик образ яратишнинг услубий жиҳатлари	278
Хасанова Г. К. Развитие духовно-творческого потенциала младших школьников в образовательном процессе как педагогическая проблема	281
Махмудова Х. Словесное действие в актёрском искусстве	286
Nazarov A. A. Turkiston o'qituvchilar seminariyasida ta'lim tizimining tashkil etilishi va pedagogik xususiyatlari	290
Turaqulova Shaxlo Uchqun qizi O'qqa simmetrik filtrda keyk qatlam hosil bo'ladigan suspenziyalarni filtrlash" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning o'rni	296
Nomozova D. M. Fizika fanini o'qitishda ekologik tarbiya berishning metodik asoslari	304
Uroqova O.A. Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligining ichki va tashqi jihatlari	307
Abdumurodova S. M. Buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashish dolzarb muammo sifatida	313
Qurbonova S. S. Jaloliddin Rumiylar asarlarida yuksak axloqli shaxs qiyofasining yoritilishi	318
Rahimboyev R. A. To'p bilan o'ynash jarayonida o'quvchilarning chaqqonlik va muvozanatini rivojlantirish texnologiyasi	323
Murodova F. J. Harbiy-vatanparvarlik nutqining leksik tizimida giponimik birliklar	326
Zayniddinova M. T. O'qish savodxonligi darslarida badiiy asarni o'qitish kompetensiyalari va samarali yondashuvlari	331
<b>19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
Akramov M. R. Mutaassib shaxs shakllanishi va uni o'rganishda diagnostik suhbat olib borishning psixologik jihatlari	335
Diyarov N. A. Harbiy xizmatchilarda jangovar psixologik jarohatlarning oldini olish usullari psixologik muammo sifatida	340
Rahmatullayeva M. P. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlar rivojlanishining psixologik xususiyatlari	344
Rasulova F. F. SHaxs o'zini o'zi boshqarish muammosining nazariy tahlili	349
Эльчиева Д. Т. Психолого-педагогические условия формирования творческого мышления педагога	352
Юлдашева М. Б. Особенности проявления группового конформизма в студенческих группах	358

## HARBIY-VATANPARVARLIK NUTQINING LEKSIK TIZIMIDA GIPONIMIK BIRLIKLAR

Murodova Firuza Jalolovna  
ChDPU o'qituvchisi f.f.b.f.d. (PhD)

*Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy-vatanparvarlik nutqidagi giponimik birliklarning o'rni va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Giponimiya lingvistik hodisa sifatida tasniflanib, harbiy vatanparvarlik mazmuniga ega leksik birliklar misolida ularning semantik munosabatlari ochib beriladi. Maqolada giponim va gipergiponimlar o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning nutqdagi ifoda shakllari, shuningdek, kontekstda ma'no aniqligini ta'minlashdagi roli yoritiladi. Tahlil davomida zamonaviy harbiy matnlar va vatanparvarlik ruhidagi chiqishlar asos qilib olinib, giponimik tizimning nutq uslubiga ta'siri ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari harbiy diskursdagi semantik qatlamni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

*Kalit so'zlar: Giponimiya, giponim hamda giperonim atama, mikrotizimning markaziy leksemi, implisit, semantik maydon, ierarxik aloqa, giperonimik (tur-jins) munosabat, partonimik (butun –bo'lak) munosabat.*

## HYPONYMIC UNITS IN THE LEXICAL SYSTEM OF MILITARY-PATRIOTIC SPEECH

Murodova Firuza Jalolovna  
ChDPU teacher; Ph.D.

*Annotation. This article analyzes the role and functional characteristics of hyponymic units in military-patriotic speech. Hyponymy is classified as a linguistic phenomenon, and their semantic relations are revealed on the example of lexical units with military-patriotic content. The article highlights the connections between hyponyms and hyperhyponyms, their forms of expression in speech, as well as their role in ensuring the clarity of meaning in the context. The analysis is based on modern military texts and patriotic speeches, and the influence of the hyponymic system on the style of speech is shown. The results of the study serve to provide a deeper understanding of the semantic layer in military discourse.*

*Keywords: Hyponymy, hyponym and hypernym term, central lexeme of the microsystem, implicit, semantic field, hierarchical relationship, hypernymic (species-genus) relationship, paronymic (whole-part) relationship.*

## ГИПОНИМИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Муродова Фируза Джалоловна  
Преподаватель ЧДПУ, кандидат наук (PhD)

*Аннотация. В данной статье анализируется роль и функциональные характеристики гипонимических единиц в военно-патриотической речи. Гипонимия классифицируется как лингвистический феномен, а её семантические связи раскрываются на примере лексических единиц военно-патриотического содержания. В статье освещаются связи между гипонимами и гипергипонимами, их формы выражения в речи, а также их роль в обеспечении ясности смысла в контексте. Анализ основан на современных военных текстах и патриотических речах, показано влияние гипонимической системы на стиль речи. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию семантического слоя в военном дискурсе.*

*Ключевые слова: Гипонимия, термины гипоним и гипероним, центральная лексема*



*микросистемы, имплицитное значение, семантическое поле, иерархические отношения, гиперонимические (вид-род) отношения, партонимические (целое-часть) отношения.*

Kirish. O'zbek tili o'zining boy leksik tarkibi, ma'no jihatdan nozik qirralarga ega bo'lgan so'zlar tizimi bilan ajralib turadi. Tilning sinonimiya, omonimiya, antonimiya, partonimiya, giponimiya kabi semantik munosabatlarga boy bo'lishi — uning rivojlanganligi, uslubiy boyligi va nutqiy imkoniyatlarining kengligini namoyon etadi. Ayniqsa, iboraviy birliklar, tasviriy ifodalar va leksik-semantik qatlamdagi tizimli munosabatlar tilda muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Leksikologiya fanining asosiy vazifalaridan biri — so'zlarning semantik jihatlarini, ularning semik tarkibini, ma'no ko'lamini chuqur o'rganishdir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, giponimiya hodisasi tilshunoslikda alohida o'ringa ega bo'lib, u leksik birliklar o'rtasidagi umumiylik va xususiylik, kenglik va torlik munosabatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Giponimik munosabatlar tildagi ierarxik semantik tuzilmani ochib berishi bilan birga, turli soha nutqlarida — jumladan, harbiy va vatanparvarlik yo'nalishidagi matnlarda — termin va atamalar tizimini aniqlashtirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri — sohaga oid nutq leksikasini tizimlashtirish, funksional jihatdan tahlil qilish va uni uslubiy jihatdan boyitish hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik nutqidagi giponimik birliklarni o'rganish, ularning qo'llanish mexanizmini aniqlash, semantik tahlil asosida qatlamlashgan leksik birliklar tizimini yoritish nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki harbiy-kommunikativ faoliyat samaradorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Giponimiya, giperonim va giponim atamalari tilshunoslikka ilk bor 1968-yilda ingliz olimi Dj. Layons tomonidan jins va tur munosabatlarini ifodalovchi semantik hodisa sifatida olib kirilgan. U ushbu masalaga 1977-yilda Londonda nashr etilgan "Semantika" nomli fundamental asarida to'liq ta'rif va izohlar beradi. Keyinchalik bu hodisa rus tilshunosligida ham ilmiy e'tiborga olinib, A.A. Ufimseva, L. Novikov, Zemskiy, Yu.S. Stepanov, shuningdek, Fomyanova va Suprun tahriri ostida nashr etilgan "Общее языкознание" asarlarida dastlabki nazariy qarashlar shakllangan. Fransuz tilshunosi V.G. Gak giponimiya masalasiga doir fikrlarni o'z tadqiqotlarida bayon etgan. O'zbek tilshunosligida bu hodisa ilk bor R. Safarovning 1990-yilda yozilgan "Типонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов)" nomli nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy tahlil qilinib, keyinchalik J.Sh. Jumaboeva tomonidan "O'zbek va ingliz tillarida leksik va stilistik graduonimiya" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida yanada chuqurroq o'rganilgan. Tilshunos olimi R. Sayfullaeva giponimlarni giperonimning jins belgisini bildiruvchi umumiy semantik mikrotizimdagi markaziy leksema, giponimni esa shu jinsga oid xususiy belgini ifodalovchi, semantik jihatdan boyroq leksik birlik sifatida ta'riflaydi. Taniqli tilshunos H. Jamolxonov esa giponimik munosabatlarni lug'at boyligidagi leksemalarning pog'onali (ierarxik) semantik aloqalari asosida shakllanuvchi jins va tur, butun va bo'lak munosabatlari sifatida tavsiflaydi. Shunday qilib, giponimiya hodisasi leksik birliklar o'rtasidagi ma'no munosabatlarini aniqlashda muhim vosita bo'lib, u til tizimidagi semantik ierarxiyani ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Har qanday soha nutqida kuzatiladiganidek, harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi nutq leksikasida ham giponimik munosabatlar muhim o'rin tutadi. Xususan, bu soha leksikasida giponimlardan keng foydalanilishi terminlar va atamalar tizimining aniq, ierarxik asosda tashkil topganligini ko'rsatadi. Leksik birliklar semantik maydondagi o'zaro munosabatlariga ko'ra giperonim (umumiy jins) va giponim (xususiy tur) turlariga ajratiladi. Giponimlar ma'lum bir semantik guruhga mansub bo'lib, ularning sememalari giperonimga tegishli umumiy semani o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, giponim leksemaning ma'nosi tarkibida giperonim leksemaning asosiy semasi implisit tarzda mujassam bo'ladi. Shuning uchun ham giponimlar semantik maydon ichida giperonimga nisbatan torroq, lekin aniqlashtiruvchi funksiyani bajaruvchi birliklar

sifatida qatnashadi. Boshqacha aytganda, giponimlar umumiy ma'no bildiruvchi leksik birlik — giperonimning tarkibiy qismlarini tashkil etadi va ularning har biri aniq, konkret tushunchani ifodalaydi. Bu kabi leksik-semantik munosabatlar, xususan, harbiy-vatanparvarlik leksikasining tizimlashtirilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, "vatanparvarlik" giperonimi tarkibida ham ko'plab giponim birliklari mavjud: fidoyilik, jasorat, mardlik, vatan uchun jon fido qilish, harbiy xizmatni sharaflab deb bilish kabi tushunchalar vatanparvarlikning turli ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu birliklar vatanparvarlik tushunchasining nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovli ekanini, uning tilda qanday ifodalanishini ko'rsatadi.

Giperonim-giponim munosabatlarini o'rganish, ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik leksikasining funksional yondashuv asosida tadqiq etilishida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu orqali til birliklarining nafaqat semantik bog'liqligi, balki ularning jamiyatdagi kommunikativ va ideologik vazifalari ham ochib beriladi. Misol uchun, "jasorat" so'zi faqat shaxsiy sifat sifatida emas, balki vatan oldidagi xizmatda namoyon bo'ladigan qadriyat sifatida ham baholanadi. Shu bois bunday leksik birliklar faqat lug'aviy darajadagina emas, balki madaniy-ma'naviy kontekstda ham tahlil etilishi lozim.

Natija va muhokama. Umuman olganda, giperonim va giponimlar o'rtasidagi semantik munosabatlar harbiy-vatanparvarlik leksikasini tizimli asosda tahlil qilishda, ularni sohalar, rollar, qadriyatlar va tushunchalar bo'yicha tasniflash va guruhlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Leksemalarning ma'nosidagi giperonimik (tur-jins) va partonimik (butun-bo'lak) munosabatlar soha tili lug'at boyligini shakllantirish hamda undagi terminologik tizimlarning qurilishini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu munosabatlar tildagi leksemalarning paradigmatic tizimini — ya'ni ular orasidagi ma'no guruhlarini aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Shu orqali har bir soha yoki terminologik sohadagi leksik birliklarning o'zaro aloqalari, strukturalari va funksional o'rni aniq ko'rinib oladi.

Masalan, harbiy leksikadagi "harbiy kiyim" tushunchasi giperonim bo'lib, uning tarkibida turli giponimlar, ya'ni aniq kiyim turlari mavjud. Bu mazmuniy guruhga kiruvchi leksik birliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi: sovut, kaska, telnyashka, shinel, furajka, shlyom, kitel, kombizon, kushetka, pidjak, bushlat, fufayka va boshqalar. Har bir nomlangan birlik harbiy kiyimlarning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va funktsiyalarini aks ettiradi, shu bilan birga butun tizim ichidagi o'rni va ahamiyatini belgilaydi.

Shuningdek, harbiy sohada yana bir muhim terminologik tizim — harbiy mashinalar mazmuniy guruhi mavjud. Ushbu guruhda quyidagi leksemalar ko'p uchraydi: amfibiya, tank, transportyor, barja va boshqalar. Bu leksik birliklar harbiy texnika vositalarining turli turlarini ifodalaydi va ular o'rtasidagi texnik, maqsad hamda foydalanish xususiyatlariga ko'ra farqlanadi.

Giperonimik va partonimik munosabatlarning chuqur tahlili nafaqat soha tili lug'atining boyligini ochib beradi, balki terminologik tizimlarning mantiqiy tuzilishini ham ko'rsatadi. Masalan, "harbiy kiyim" sohasida partonimik munosabatlar butun-bo'lak shaklida ko'rinadi: masalan, shinel — bu "harbiy kiyim"ning bir qismi; "kaska" esa bosh kiyimi hisoblanadi. Shu tariqa, sohadagi leksemalar o'zaro tur-jins va butun-bo'lak munosabatlari asosida tartibga solinadi, bu esa lug'atlarni tizimli yondashuv bilan o'rganish va ishlatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, mazkur munosabatlar harbiy-vatanparvarlik leksikasining yanada chuqur tahlil qilinishida, uning kommunikativ, funksional va pragmatik qirralarini o'rganishda muhim ilmiy baza yaratadi.

Til bizning ongimizda imkoniyat va umumiylik munosabatlari sifatida mavjud bo'lib, u nutq orqali namoyon bo'ladi. Shu bois, nutqda ko'pincha umumiy leksemalardan foydalanish kommunikativ qulaylik tug'diradi. Umumiylik tushunchasi barcha uchun tushunarli va keng qamrovli bo'lsa, xususiylik esa soha tili doirasida aniq va yorqin namoyon bo'ladi. Til birliklarining umumiy va xususiylik jihatlarini tahlil qilish tilning funksional imkoniyatlarini yanada chuqurroq

anglashga yordam beradi.

Masalan, 1. Muqaddas qasamyodiga hamisha sodiq, el-yurt himoyasi yo'lida metin qalqon bo'lgan mard va jasur harbiylarimiz O'zbekistonning chinakam vatanparvar bahodirlari, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. 2. Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar! Qurolli Kuchlarimiz xizmatchilari va faxriylari! Birinchi gapda "harbiylarimiz" so'zi umumiylik va yaxlitlik ma'nosini ifodalovchi leksik birlik sifatida ishlatilgan. Bu so'z harbiy xizmatdagi barcha xizmatchilarni o'z ichiga olgan, keng qamrovli tushunchani anglatadi. Ikkinchi gapda esa "askar", "serjantlar", "ofitser", "generallar", "Qurolli Kuchlarimiz xizmatchilari" kabi leksik birliklar keltirilgan bo'lib, ular "harbiylar" so'zining giponimlari sifatida, ya'ni bu umumiy tushunchaning tarkibiy, aniqroq qismalari sifatida faol ishlatiladi. Ushbu leksemalar harbiy xizmatchilarning mansablari va unvonlarini ifodalab, soha tilida xususiylikni ta'kidlaydi.

Quyida ushbu leksemalarning ta'riflari keltirilgan:

- Harbiy — armiyada xizmat qiluvchi kishi; harbiy ish bilan shug'ullanuvchi shaxs. Misol: "Hech kim harbiylarga xos chaqqonlik bilan javob bermadi" (Shuhrat, Shinelli yillar).
- Askar — harbiy xizmatdagi shaxs. Misol: "... bir guruh ota-onalar Qashqadaryo viloyatidagi askarlarning hayoti bilan tanishish maqsadida keldilar" (Gazetadan).
- Serjant — militsiya, politsiya va armiyada kichik komandirlarga beriladigan unvon hamda shu unvonga ega shaxs. Misol: "Men bilan yonma-yon bir serjant ham otishib edi" (Aydin, Hikoyalar).
- Ofitser — Qurolli kuchlar, politsiya va jandarmeriyaning komandirlar tarkibidagi harbiy xizmatchi. Misol: "Polkovnik soldat va ofitserlarning jangovar tayyorgarligi qanday borayotganini tekshirdi" (A.Qahhor, Oltin Yulduz).
- General — oliy qo'mondonlik tarkibiga beriladigan unvon va shu unvonga ega shaxs. Misol: "General boshqa bir necha komandirlar bilan kombat yerto'lasiga kirdi" (Oybek, Quyosh qoraymas).


Ko'rinib turibdiki, "harbiylar" leksemasi umumiy ma'noda ishlatilib, harbiy xizmatdagi barcha xizmatchilarni qamrab oladi. Shu bilan birga, qolgan leksik birliklar — askar, serjant, ofitser, general — bu umumiy tushunchaning xususiyligi, aniq qatlamlarini ifodalaydi.

Shuningdek, tilshunoslikda partonimik (butun-bo'lak) munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Ular so'zlarning butun va uning qismlari o'rtasidagi bog'lanishini ifodalaydi. Lekin, partonimik munosabatlar asosida hosil bo'lgan lug'aviy birliklar qatori, giperonimik-giponimik munosabatlarni ifodalovchi paradigmalardan farq qiladi. Giperonim-giponim munosabatlar leksik birliklar orasidagi ma'nodagi umumiylik va ierarxiyani belgilasa, partonimik munosabatlar esa so'zlarning sintaktik va semantik bog'lanishini, butun va uning bo'laklari orasidagi munosabatni ko'rsatadi.

Masalan, "harbiy" so'zi shaxs otiga nisbatan olganda butun tushunchasini ifodalovchi so'z sifatida ishlatiladi. Biroq, "harbiy" so'zi sifat yoki belgi so'zi sifatida ishlatilganda (masalan, "harbiy qism", "harbiy soha", "harbiy qo'shin") uning leksik-semantik tizimi doimiy va barqaror paradigmalarni hosil qila olmaydi. Chunki bunday so'zlar kontekstga qarab turli ma'nolarni oladi va nutq sharoitida okkazional, ya'ni vaziyatga bog'liq ma'noga ega bo'ladi.

Misol uchun, shaxs otini ifodalovchi "harbiy" so'zi bir kontekstda harbiy xizmatchilarni anglatishi mumkin: "Tadbirda bir guruh harbiylar ishtirok etdi" (Gazetadan). Boshqa kontekstda esa "harbiy" sifatida ishlatilib, narsa-predmet, o'rin-joy yoki belgi otlari bilan birikadi: "harbiy samolyot", "harbiy kiyim", "harbiy baza" kabi. Bu holat so'zning paradigmatic qatorlarini barqaror hosil qila olmasligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, tilimizda umumiylik va xususiylikning o'zaro bog'lanishi, giperonimik hamda partonimik munosabatlarning o'ziga xosligi til lug'at boyligini yanada oshiradi hamda soha tili leksikasining tizimli o'rganilishiga mustahkam asos yaratadi. Ushbu munosabatlar leksik birliklarning paradigmatic tizimini aniqlashga yordam berib, ularning semantik qatlamlarining murakkabligini va kontekstga bog'liqligini ochib beradi. Natijada, tildagi gipo-giperonimik



qatorlar tilning lugʻat qatlami va soha tili leksikasining boyligini ifodalovchi muhim omil sifatida namoyon boʻladi. Bu esa soha tilining lugʻatini chuqur va tizimli oʻrganish, shuningdek, uning strukturasi mukammal shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. Toshkent: Oʻqituvchi, 1996. b-4.
2. Сафарова Р. “Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов)”. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Тошкент:1990
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. Toshkent. 2010. b-117.
4. Jamolxonov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. Toshkent. 2005. b-125.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. (keyingi oʻrinlarda OʻTIL tarzida beriladi) 5-jild. Toshkent. “Oʻzbekiston nashriyoti”. 2020. b-508.